

TARIX

1. Ma'sud G'aznaviy hukmronligi tugagan yilda bo'lib o'tgan voqeani belgilang.
 - A) Somoniylar davlati barham topdi.
 - B) Ibrohim Bo'ritegin Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oldi.
 - C) Qoraxoniylar davlati barham topdi.
 - D) Xorazm Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoldi.

2. Quyidagilardan Qadimgi Mesopotamiya tarixiga oid bo'lganlarini toping.
 - 1) Nomarx; 2) Lagash; 3) Osmon ostidagi podsholik; 4) Gilgamish; 5) kasta; 6) Akkad

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 2, 6

- 3. 1858-yil Yaponiyadagi qaysi davlat fuqarolariga ekterritoriallik huquqi berilgan?
 - A) Germaniya B) AQSh
 - C) Buyuk Britaniya D) Fransiya

- 4. Somoniylar davlati ravnaq topgan davrda uning tarkibiga kirgan hududlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
 - 1) Mavarounnahr; 2) Iroq; 3) Xuroson;
 - 4) Shimoliy Hindiston; 5) Shimoliy va Sharqiy Eron; 6) Ozarbayjon


A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 6 C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 5

- 5. 2008-yil Gruziya, Rossiya, Abxaziya va Janubiy Osetiya ishtirokida harbiy to'qnashuv yuz bergen vaqtida kim Gruziya Prezidenti edi?
 - A) Zviad Gamsaxurdija
 - B) Eduard Shevardnadze
 - C) Mixail Saakashvili
 - D) Georgiy Margvelashvili

- 6. Quyidagi qaysi gazeta chiqqa boshlagan kun hozirda O'zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot xodimlari kuni sifatida nishonlanadi?
 - A) "Xurshid" B) "Kengash" C) "Taraqqiy"
 - D) "Tarjimon"

7. 1870-1918-yillardagi AQSh tarixiga oid ma'lumotni aniqlang.
 - A) Prezident Taft "Dollar diplomatiyasi" siyosatini e'lon qildi.
 - B) Prezident Franklin Ruzvelt "Yangi kurs" siyosatini amalga kiritdi.
 - C) Qulchilik bekor qilindi.
 - D) Shimoliy va janubiy shtatlar o'rtaida fuqarolar urushi boshlandi.

8. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.

XX asrning birinchi yarmi

- a) Moskvada SSSR bilan o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi;
 - b) Pyorl-Xarborda – AQSh flotining Tinch okeanidagi asosiy harbiy bazasiga hujum qildi;
 - c) Atlantik xartiyani imzoladi; d) "Uchlar pakti" – harbiy hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolandi; e) Polshaga bostirib kirdi.
- A) I-d; II-b, c; III-e B) I-b; II-c, e; III-d
 C) I-e; II-b; III-a, d D) I-b; II-c; III-a, d

9. Qaysi voqeadan so'ng qirol Viktor Emmanuil III Benito Mussolinini hukumat boshlig'i etib tayinlagan?
 - A) 1923-yil davlat to'ntarishidan so'ng
 - B) Fashistik guruhlarning mashhur Rimga yurishidan so'ng
 - C) Mamlakatdagi so'l kuchlar Xalq frontini tuzgandan so'ng
 - D) Mamlakatda Katta fashistik kengash tuzilganidan so'ng

10. "Koalitsiya" atamasining izohi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A) Umumiy maqsadga erishish uchun ayrim shaxslar, siyosiy partiyalar, davlatlar o‘rtasida tuziladigan ittifoq
- B) Urushayotgan tomonlardan birining urush harakatlarini, qurolli qarshilik ko‘rsatishni davom ettirishdan voz kechishi
- C) Majburiy kuchga ega bo‘lmagan xalqaro akting umumiy qoidalari va maqsadlarini ifodalaydigan hujjat
- D) Urush harakatlari bo‘layotgan hududdan odamlar, muassasalar, korxonalar va boshqalarning urush bo‘lmayotgan xavfsiz hududlarga ko‘chirilishi

11. Nuqtalar o‘rniga mos keladigan javobni toping. O‘rta asrlar:

- 1) Usmonlilar davlati – Mexmet II;
 - 2) Vizantiya imperiyasi – Yustinian I;
 - 3) Muqaddas Rim imperiyasi – ...
- A) Buyuk Alfred B) Filipp IV
 - C) Otton III D) Asparux

12. Tarixiy-mantiqiy bog‘liqlik (ketma-ketlik, moslik) to‘g‘ri berilgan javobni toping.

- A) Xitoy – «Sinxay inqilobi»ning boshlanishi – Respublika boshqaruvinining o‘rnatalishi
- B) Eron – «Shahanshohbank»ning ochilishi – Dyurand bitimining imzolanishi
- C) Yaponiya – Simonoseki sulkining imzolanishi – Ixetuan harakatining boshlanishi
- D) Hindiston – taypinlar qo‘zg‘olonining boshlanishi – «Musulmonlar ligasi»ning tuzilishi

13. Qaysi javobda nomi keltirilgan tarixiy shaxs qo‘zg‘olon rahbari **bo‘lmagan**?

- A) Lyu Ban B) Spartak C) Frada
- D) Demokrit

14. XII asr boshlarida Fransiyada qirol hokimiyatini markazlashtirish jarayonida o‘zboshimcha baronlarning qal’alarini buzib, ularni o‘ziga bo‘ysundirgan qirolni aniqlang.

- A) Filipp IV B) Lyudovik VI C) Karl VII
- D) Karl V

15. Quyida berilganlardan qaysilarida **davlat-shaxs-voqe** mosligi to‘g‘ri berilgan?

- 1) SSSR – I.Stalin – tajovuzkor davlat sifatida Millatlar Ligasidan chiqarildi;
- 2) Qиргизистон – K.Bakiyev – "lolalar inqilobi" natijasida hokimiyatdan ag‘darildi;
- 3) Italiya – Viktor Emmanuil III – Mussolini hukumat boshlig‘i etib tayinlandi;
- 4) Tojikiston – Imomali Rahmonov – Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligini ta’sis qilish to‘g‘risidagi shartnomaga imzolandi;
- 5) AQSh – Richard Nikson – mamlakatda makkartizm avj oldi

- A) 1, 3, 4 B) 2, 4, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 4

16. O‘rta Osiyo davlatlarida ko‘plab hunarmandchilik markazlari mavjud bo‘lib, ular mahalliy xususiyatlarga ko‘ra hunarmandchilikning turli sohalariga ixtisoslashgan. Shundan Rishton (a) va Shahrixon (b) shaharlarida hunarmandchilikning qaysi sohalari rivojlangan?

- 1) gilam va kigiz tayyorlash; 2) kulolchilik;
- 3) pichoqchilik va duradgorlik; 4) qop va arqonlar tayyorlash

- A) a-2, b-3 B) a-1, b-3 C) a-1, b-4
- D) a-2, b-4

17. Turkiston viloyati gubernatori

F.Romanovskiyga harbiy harakatlarni Qo‘qon xonligiga qarshi qaratish to‘g‘risida ko‘rsatma bergan N.Krijanovskiy ... bo‘lgan.

- A) Rossiya imperiyasining harbiy vaziri
- B) Orenburg general-gubernatori
- C) Rossiya imperiyasining tashqi ishlar vaziri
- D) Sibir okrugi qomondoni

18. Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan «oq koloniya»ni toping.

- A) Eron B) Avstraliya C) Afg‘oniston
- D) Hindiston


19. Ilk o‘rta asrlarda mamlakatimiz hududlarida shakllangan tabaqalar va ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeい bir-biri bilan mos ravishda berilgan javobni toping.

- 1) dehqon; 2) kadivar; 3) kashovarz
- a) qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo‘lgan erkin ziroatchilar tabaqasi; b) yerli mulkdor toifa; c) yersiz va erksiz qaram toifa

- A) 1-b, 2-c, 3-a B) 1-b, 2-a, 3-c
- C) 1-a, 2-c, 3-b D) 1-a, 2-b, 3-c

- 20.** Quyida berilganlardan qaysilari AQShning 1776-1800-yillardagi tarixi bilan **bog‘liq emas?**
- 1) "Gomstedlar to‘g‘risidagi qonun";
 - 2) Mustaqillik Deklaratsiyasi;
 - 3) "Taraqqiyat davr"; 4) Konstitutsiya qabul qilinishi; 5) "dollar diplomatiyasi";
 - 6) Prezident lavozimi joriy etilishi
- A) 2, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 1, 3, 5 D) 1, 4, 6

- 21.** Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



A) 4, 6 B) 2, 5 C) 3, 6 D) 1, 3

- 22.** Quyidagilardan qaysi biri qadimgi Rimda ov xudosi hisoblangan?

A) Morfey B) Venera C) Merkuriy
D) Diana

- 23.** Quyidagi ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.

"XVI asrda Hindistonda hukmronlik qilgan. Unga qarshi birlashgan mahalliy zodagonlar tomonidan 1540-yilda taxtdan ag‘darilgach, Eron shohi Taxmasp I saroyidan panoh topgan. Uzoq kurashlardan so‘ng, 1555-yilda Dehlini qaytarib olishga muvaffaq bo‘lgan".

A) Bahodirshoh II B) Akbarshoh
C) Humoyun D) Avrangzeb

- 24.** Monopolistik kapitalizm bosqichida Rossiya eng ko‘p kapital kiritgan (a) va Xitoyda tovar ayirboshlashda birinchi o‘rinda turgan (b) davlatlarni toping.
- 1) Fransiya; 2) Buyuk Britaniya; 3) Germaniya;
 - 4) AQSh
- A) a-1, b-2 B) a-1, b-4 C) a-3, b-4
D) a-3, b-2

- 25.** 1745-yilda jung‘orlar Farg‘ona vodiysiga yangidan hujum boshlagan paytda dushmanga qarshi qaysi urug‘lar birgalikda kurashdi?
- 1) mang‘itlar; 2) minglar; 3) yuzlar;
 - 4) kenagaslar; 5) qipchoqlar; 6) qo‘ng‘irotlar;
 - 7) qirg‘izlar
- A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 4, 6, 7 C) 1, 3, 5, 6
D) 2, 3, 5, 7


- 26.** Qadimgi Hindistonda to‘rt varna(kasta)ga kirmagan aholi toifasini aniqlang.

A) chandal B) kshatriy C) shudra
D) braxmanlar

- 27.** Ma'lumki, Yevropaning ko‘pgina yozuvchilar o‘z asarlarida "oq tanli kishi" boshqalardan ustun bo‘lib, "rangdor" xalqlar orasiga madaniyat olib kirishga tayyor turadi, degan aqidani ilgari surishgan. Shunday g‘oyalar R.Kiplingning qaysi asarida uchraydi?


A) "Silvester Bonnarning jinoyati"
B) "Marten Iden"
C) "Oq tanli kishining burch anduhi"
D) "Jasoratning qonli belgisi"

28. Xaritada yulduzcha bilan ko'rsatilgan hududda qadimgi davrda vujudga kelgan davlatni toping.



- A) Pekche davlati B) Chjou davlati C) Maurya davlati D) Koguryo davlati

29. Xaritada qaysi raqam bilan ko'rsatilgan hudud (davlat) da XIV asrda hokimiyat tepasiga Li sulolasi kelgan?



- A) 1 B) 4 C) 3 D) 2

30. Quyidagi jadvalda tarixiy voqealardan uning natijasi o'zaro **nomuvofiq** berilgan qatorlarni aniqlang.

Nº	Voqealardan	Natija
1.	«Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni	Qo'zg'olchilarning mag'lubiyati
2.	1877-1878-yillardagi Rossiya-Turkiya urushi	San-Stefano shartnomasining imzolanishi
3.	1512-yilda Elbarsxon Xorazm taxtini egalladi	Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining boshlanishi
4.	Kubadagi 1959-yilgi inqilob	F. Kastroning hokimiyat tepasiga kelishi
5.	1924-yilda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralarinishing o'tkazilishi	Turkiston ASSR, BXSR va XXSRning tashkil topishi

- A) 1, 2 B) 3, 5 C) 3, 4 D) 1, 5